

FALERONIM (ORDEN)LARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Maksuda Xusanova,
Renessans ta’lim universiteti
tadqiqotchisi

***Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek tilshunosligining onomastika bo‘limida faleronim va uning turlarini ilk bor tadqiqi, ta’sis etilishi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, orden va uning turlari, kimlar berilishi xususida fikrlar yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** faleronim, dignitonim, orden, medal, ko‘krak nishoni, mukofot, ta’sis etilishi, rag‘batlantirish.*

***Abstract.** The article discusses the first research of faleronyms and its types in Uzbek onomastics, the establishment of faleronyms, as well as the order, its types and who it is awarded to.*

***Keywords:** faleronym, dignitonym, order, medal, badge, award, establishment, encouragement*

Ma’lumki, o‘zbek xalqi milliy va umuminsoniy madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati bilan e’tirof etilgan xalqlardan biridir. Bu esa xalqimiz hayotida avval ham, hozir ham dignitonim va faleronimlarning, ya’ni ijtimoiy faoliyatda qilgan ishlarini ma’naviy, ma’rifiy va ruhiy jihatlardan rag‘batlantirish uchun ta’sis etilgan unvon, orden, medal va mukofotlarning nomlari ma’lum va mashhurdir. Dignitonim va faleronimlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida ta’sis etiladi va prezident tomonidan topshiriladi. Faleronim – har qanday orden, medal ko‘krak nishonlari, tojlar va sh.k. atoqli oti [2]. Kishilarni mehnat faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ushbu faleronimlar o‘zbek tilining onomastika bo‘limida o‘rganiladi. Ushbu atoqli ot nomlariga quyidagilar kiradi: orden, medal, mukofot, faxriy yorliq. Orden, medal va mukofotlarning nomlariga narsalar, voqea-hodisalarning mazmunidan kelib chiqib maxsus nomlar beriladi.

Orden (lot ordo - qator, daraja)- 1 metall nishon, taqdirlash belgisi, harbiy yoki fuqarolik xizmatlari uchun beriladigan faxriy mukofot. Ordenning taqdirlash belgisi sifatida vujudga kelishi ritsarlik tarixi bilan bog‘liqdir. Qadimda ritsarlar alohida kiyim bosh kiyib,bo‘yinlariga qimmatbaho metallardan yasalgan kres taqib yurishgan, bu ularning muayyan ritsarlik tashkiloti (orden)ga tegishligini bildirib turgan. Lenin ordeni. Mehnat Qizil Bayroq ordeni. “Qahramon ona” ordeni. Orden bilan mukofatlamoq [3]. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida” qonuni 8 –moddasi O‘zbekiston Respublikasining ordenlari to‘g‘risida bo‘lib,ular quyidagilardan iborat: “Mustaqillik” ordeni; “Amir Temur” ordeni; “Jaloliddin Manguberdi” ordeni; “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni; “El-yurt hurmati” ordeni; “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni; “Mehnat shuhrati” ordeni; “Faxriy

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

murabbiy” ordeni; I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni; I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni; “Do‘stlik” ordeni; I va II darajali “Salomatlik” ordeni; “Mardlik” ordeni, “Imom Buxoriy”. Mazkur ordenlar 14 ta bo‘lib, fuqarolar ushbu ordenlar bilan taqdirlanadi.

“Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan qahramonlik va jasorat ko‘rsatganlar taqdirlanadi. “Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan mamlakatimiz mustaqilligini, Vatan sarhadlarini himoya qilishda qahramonlik va jasorat ko‘rsatgan harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar.

“Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, “Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, ijodiy jamoalar, harbiy bo‘linmalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy birliklari ham taqdirlanishi mumkin.

O‘tgan asrda Abdulahadxon rus imperator Aleksandr III tomonidan generali – general-adyutant, eng oliy generallik unvoni – kavaleriya generali darajasi bilan taqdirlangan. Imperiyaning birinchi ordeni – Aleksandr Pervozvanny kavalerii bo‘lgan[4]. Abdulahadxon ham Rossiya imperatorini ordensiz qoldirmagan. Imperator Aleksandr III (1881–1894) sharafiga sof oltindan “Iskandar” ordenini ta‘sis etib, uni rus podshosiga taqdim etgan. Shuningdek Podsho Aleksandr III ga “Buxoro yulduzi” ordeni topshirildi va Abdulahad haqiqiy taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdiqlandi. 1883-yilda esa amir Muzaffar Rossiya imperiyasining I-darajali “Muqaddas Anna” ordeni bilan taqdirlandi[4]. Shuningdek, “Qizil bayroq” ordeni XX asr boshlarida, sotsialistik hokimiyat tashkil topgach, ushbu orden ta‘sis etilgan. Mazkur orden mehnat va vatan himoyasida faol eshtirok etgan shaxslar taqdirlangan. Masalan, urushda ko‘rsatgan jasorati uchun Shavkat Qoriyev “Qizil bayroq” ordeni, Botir Qoriyev esa “Qizil yulduz” ordeni bilan taqdirlangan ekan[1]. Bu faleronim hozirgi kunda arxiak so‘zlar qatoriga kirgan.

Ma‘lum bir davlatda, xususan, O‘zbekiston Respublikasida yashab, uning qonun va talablarini bajarib, o‘z faoliyatida yaxshi, o‘rinli va ko‘pchilik tan oladigan darajada ishlaganlarga yuqoriroqda ta‘kidlanganidek, davlat tomonidan maxsus rag‘batlantirish yo‘llari va usullari o‘ylab ko‘rilgan. Ordenlar mana shu rag‘batlantirishning o‘ziga xos va betakror ko‘rinishlaridan biri.

Unvon, orden, medallar va mukofotlar kishilarning yashagan davrining xususiyati, ideallari, intilishlariga, orzu va umidlariga ko‘ra o‘zgarib turadi. Bugungi kunda ham kishilarni bajargan mehnatlari, ixtirolari taqdirlanib, ma‘no va tuzilishida biroz o‘zgarishlar mavjud. Hozirgi davrga kelib dignitonimlar har bir sohadagi ixtiro va mehnatlariga, ularda o‘z sohasida ko‘proq ishlashiga motivatsiya berib, kishilar

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

rag‘batlantirishga ehtiyoj yanada ortmoqda. Bu davlatimizning rivojlanishiga hissa qo‘shayotgan kishilarimizning ko‘pligidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.2021.09.05. Toshkent.www/lex.uz
2. E.Begmatov. O‘zbek tili antroponimikasi.Toshkent.2013.40-b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.II- t. Moskva “ Rus tili” nashriyoti 1981. B-541
4. B.J. Eshov, A.A.Odilov .O‘zbekiston tarixi.1-jild.2014. 236 b.
5. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
6. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
7. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.